XALQ DEPUTATLARI O’RTACHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-iyul VII-13-65-10-143-K/25 O’rtachirchiq tumani

O‘rta Chirchiq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi **299-sonli** qarorining **1-ilovasi** bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 14-dekabrdagi 200-2-37-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharcha va qishloqlarining umumiy perimetri **534396 metr,** umumiy maydoni **40740,11 gektar** ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Qorasuv shaharchasi umumiy perimetri 8504 metr, umumiy maydoni 238,33 gektar;

Tuyabo‘g‘iz shaharchasi umumiy perimetri 7622 metr, umumiy maydoni 196,31 gektar;

Kuchlik shaharchasi umumiy perimetri 9474 metr, umumiy maydoni 186,04 gektar;

Alisher Navoiy qishlog‘i umumiy perimetri 67791 metr, umumiy maydoni 6705,52 gektar;

Angor qishlog‘i umumiy perimetri 29130 metr, umumiy maydoni 3258,05 gektar;

Haqiqat qishlog‘i umumiy perimetri 65688 metr, umumiy maydoni 3505,1 gektar;

Istiqbol qishlog‘i umumiy perimetri 39285 metr, umumiy maydoni 3201,58 gektar;

Oqota qishlog‘i umumiy perimetri 23135 metr, umumiy maydoni 2073,71 gektar;

O‘rtasaroy qishlog‘i umumiy perimetri 30196 metr, umumiy maydoni 2594,75 gektar;

Paxtakor qishlog‘i umumiy perimetri 36707 metr, umumiy maydoni 2545,7 gektar;

Paxtaobod qishlog‘i umumiy perimetri 49545 metr, umumiy maydoni 3564,12 gektar;

Qorasuv qishlog‘i umumiy perimetri 37092 metr, umumiy maydoni 3709,20 gektar;

Tuyabo‘g‘iz qishlog‘i umumiy perimetri 57010 metr, umumiy maydoni 2487,58 gektar;

Uyshun qishlog‘i umumiy perimetri 28022 metr, umumiy maydoni 2523,53 gektar;

Yangi turmush qishlog‘i umumiy perimetri 13228 metr, umumiy maydoni 885,01 gektar;

Yo‘ng‘ichqoli qishlog‘i umumiy perimetri 31967 metr, umumiy maydoni 3065,58 gektar;

O‘rta Chirchiq tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlari palatasining O‘rta Chirchiq tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining O‘rta Chirchiq tumani filiali rahbari **F.Rasulov**ning O‘rta Chirchiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan O‘rta Chirchiq tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 16-iyun 15-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘rta Chirchiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tuman Kengashining 2023-yil 12-dekabrdagi VI-64-80-10-143-K/23-sonli hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 13-martdagi VI-88-25-10-0-K/24-sonli qaroriga asosan 2406,12 ga (Oqota qishlog‘idan 1619,36 ga, Qumovul qishlog‘i 730,20 ga, Sholikor shaharchasi

56,56 ga) yer maydoni Toshkent shahri tarkibidagi Yangi Toshkent tumani hududiga o‘tkazilishi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Senatining qaroriga asosan o‘zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati A.Ergashevga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning tasdig‘i Toshkent viloyati Xalq deputatlari Kengashidan so‘ralsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



KASIMOV IXTIYOR RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 29-iyuldagi
VII-13-65-10-143-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘rta Chirchiq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida


M A ’ L U M O T

T/r	**Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi**	**Umumiy perimetr (metr)**	**Umumiy maydoni (gektar)**
1	Qorasuv shaharchasi	8504	238,33
2	Tuyabo‘g‘iz shaharchasi	7622	196,31
3	Kuchlik shaharchasi	9474	186,04
4	Alisher Navoiy qishlog‘i	67791	6705,52
5	Angor qishlog‘i	29130	3258,05
6	Haqiqat qishlog‘i	65688	3505,1
7	Istiqbol qishlog‘i	39285	3201,58
8	Yo‘ng‘ichqali qishlog‘i	31967	3065,58
9	O‘rtasaroy qishlog‘i	30196	2594,75
10	Paxtakor qishlog‘i	36707	2545,7
11	Paxtaobod qishlog‘i	49545	3564,12
12	Qorasuv qishlog‘i	37092	3709,20
13	Tuyabo‘g‘iz qishlog‘i	57010	2487,58
14	Uyshun qishlog‘i	28022	2523,53
15	Yangi turmush qishlog‘i	13228	885,01
16	Oqota qishlog‘i	23135	2073,71
Jami		**534396**	**40740,11**
Toshkent shahri tarkibiga o‘tkazilayotgan yer uchastkalari			
16/[1]	Oqota qishlog‘i	24932	1619,36
17	Qumovul qishlog‘i	16430	730,20
18	Sholikor shaharchasi	4536	56,56
Jami		**45898**	**2406,12**

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2025-yil 29-iyuldagi
VII-13-65-10-143-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O'rta Chirchiq tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo'yicha

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Toshkent shahri yerlari*

B dan D gacha *Yuqori Chirchiq tumani yerlari*

D dan E gacha *Ohangaron tumani yerlari*

E dan F gacha *Piskent tumani yerlari*

F dan G gacha *Oqqo'rg'on tumani yerlari*

G dan A gacha *Quyichirchiq tumani yerlari*

Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan A gacha *Nurafshon shahri yerlari*

Shartli belgilar

Tumanlar chegarasi

Shahar va shaharchalar chegarasi

Qishloqlar chegarasi

O'rta Chirchiq tumanidan Toshkent shahriga o'tkazilayotgan yer maydonlari